XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-13-122-8-116-K/25 Sariosiyo tumani

Sariosiyo tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 25-dekabrdagi 22-13-04/137-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sariosiyo tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1015-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Sariosiyo tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 151 778 000,0 ming so‘m va xarajatlari 151 778 000,0 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Sariosiyo tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 424 834,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Sariosiyo tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, 2026-yilda Sariosiyo tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 998 000,0 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Qultayev, tuman Soliq inspeksiyasi Sh.Qosimov bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Asadov hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Qultayev zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **RAJABOV MUXAMMAD RUZIBADALOVICH**

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-13-122-8-116-K/25 - son qaroriga 1-ilova

Sariosiyo tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**151 778 000**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	*4 971 000*
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*63 962 220*
	Jismoniy shaxslarning mol mulkini ijaraga berishdan	*1 775 000*
	Aylanmadan olinadigan soliq	*7 910 000*
	QQS	*3 269 300*
3	Aksiz solig‘i jami	
	shu jumladan:	
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	
	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*5 013 000*
	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*11 856 000*
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*16 528 000*
	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*25 976 000*
6	Davlat bojlari	*2 982 600*
7	Jarimalar	*2 300 480*
8	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat budjetiga ajratmalar	*0*
	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	*250 000*
9	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	*2 010 000*
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*1 764 800*
11	Yig‘imlar	*1 209 600*
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**0**
Daromadlar hammasi		**151 778 000,0**

Xalq deputatlari Sariosiyo
tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-122-8-116-K/25 -
son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Sariosiyo tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	cheklangan miqdori
Xarajatlar miqdori - jami		**151 778 000,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari**	**45 235 286,0**
	shundan:	
	"Mening maktabim"	5 809 200,0
2	**Madaniyat muassasalari**	**5 230 391,0**
3	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	**5 070 683,0**
4	**Sport bo‘limi**	**9 506 462,0**
5	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi muassasalari**	**4 219 722,0**
6	**Suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasi**	**1 715 459,0**
7	**Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari**	**194 350,0**
8	**Hokimiyat**	**57 034 669,0**
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	3 134 230,0
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 039 146,0
	Madaniyat bo‘limi	158 225,0
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	429 626,0
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	302 601,0
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	495 192,0
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	873 622,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	3 111 641,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	29 613 339,0
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 354 067,0
	Zahira jamg‘armasi	1 998 000,0
9	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**1 024 114,0**
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	100 012,0
	Axborot-kutubxona markazlari	924 102,0
10	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**22 546 864,0**

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-122-8-116-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Sariosiyo tumani	0%	50%	100%	50%	0%	67%	100%	33%	0%	100%	100%	0%

Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga

Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
30%	70%	26%	74%	30%	70%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

Izoh: *1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi*

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliklar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i (Termiz shahardan tashqari) bundan mustasno), soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-122-8-116-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Sariosiyo tuman mahalliy budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetning jami daromadi**	**shundan**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
JAMI	**151 778 000,0**	**151 778 000,0**	**0,0**	**151 778 000,0**
Sariosiyo tumani	151 778 000,0	151 778 000	0	151 778 000,0

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-122-8-116-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda Sariosiyo tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**424 834,0**
	shundan	
1	Sariosiyo tuman	**424 834,0**